

Tovarlar va xizmatlar resurslari va ishlatilishi jadvallarini tuzish bo'yicha uslubiy nizom

Tovarlar va xizmatlar resurslari va ishlatilish jadvallarini tuzish bo'yicha mazkur uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) Milliy hisoblar tizimi – 2008 konsepsiyalariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablariga asoslangan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi mutaxassislari tomonidan “Tovarlar va xizmatlar resurslari” va “Tovarlar va xizmatlarning ishlatilishi” jadvallarini tuzishda foydalanish uchun mo'ljallangan.

Uslubiy nizom tarmoq tasniflagichi sifatida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (2-tahrir) (keyingi o'rinlarda – IFUT-2) va mahsulotlar tasniflagichi sifatida – Mahsulotlarning statistika tasniflagichini (keyingi o'rinlarda – MST) qo'llagan holda, Resurslar va ishlatilish jadvallarini (keyingi o'rinlarda – RIJ) tuzish bo'yicha ishlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflaridan foydalaniladi hamda u GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi:

milliy hisoblar tizimi (MHT) mamlakatning iqtisodiy faoliyati natijalarini ifodalovchi hisoblar va jadvallarning muayyan to'plami shaklida tuzilgan, o'zaro bog'liq statistika ko'rsatkichlari tizimini o'zida aks ettiradi;

yalpi ichki mahsulot (YAIM) iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi va ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati orqali o'lchanadigan MHTning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir;

ishlab chiqarish hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasi bo'lib, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatini o'zida aks ettiradi;

oraliq iste'mol bu ishlab chiqarish jarayonida xarajatlar sifatida iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymatini o'zida aks ettiradi (asosiy kapital iste'moli sifatida aks ettiriladigan asosiy fondlar iste'moli bunga kiritilmaydi);

yalpi qo'shilgan qiymat ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to'raligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi;

mahsulotlarga soliqlar – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aksizlar, eksport va import uchun soliqlar va boshqalar kiradi;

mahsulotlarga subsidiyalar bu – davlat budjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to'lanadigan mablag'lar (subsidiyalar);

asosiy faoliyat bu xo'jalik yurituvchi subyektning qo'shilgan qiymati hajmiga eng katta hissa qo'shadigan ishlab chiqarish faoliyatidir;

asosiy narx bu – ishlab chiqaruvchi tomonidan xaridordan tovar yoki xizmatning birligi uchun olinishi lozim bo'lgan, mahsulot ishlab chiqarilishi yoki sotilishi natijasida to'lanishi lozim bo'lgan har qanday soliqni ayirib, olinadigan har qanday subsidiyalarning qo'shilganiga teng bo'lgan narx. U ishlab chiqaruvchi tomonidan hisobvara-fakturalarda alohida ko'rsatiladigan har qanday transport xarajatlarini o'z ichiga olmaydi;

sotib oluvchilar narxi – sotib oluvchi tomonidan belgilangan vaqtda va belgilangan joyga yetkazib berilgan tovar yoki xizmat birligi uchun to'lanadigan narx. U tovarni yetkazib berish bo'yicha savdo-vositachilik va transport xarajatlarini, shuningdek, sotib oluvchi tomonidan to'lanadigan mahsulotlar uchun soliqlarni o'z ichiga oladi, ammo mahsulotlarga subsidiyalarni va chegirib tashlanadigan qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga olmaydi;

savdo ustamasi tovar qiymatining savdo faoliyati orqali uni sotish jarayonida o'zgarishi hajmini, ya'ni tovarni sotish va sotib olish narxlari orasidagi farqni o'zida aks ettiradi;

transport ustamasi tovarlarning bozor narxiga kiritiladigan va sotib oluvchilar tomonidan to'lanadigan transport xizmatlari qiymatini o'zida aks ettiradi;

ishlab chiqarishga boshqa soliqlar korxonalar va tashkilotlar ishlab chiqarishda ishtirok etish uchun to'laydigan barcha soliqlardan iborat (mahsulotlar uchun soliqlar bundan mustasno). Ular yer va tabiiy resurslar, ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan ishchi kuchi, ma'lum faoliyat turlari bilan shug'ullanish yoki operatsiyalarni amalga oshirish uchun beriladigan ruxsatnomalar va hokazolar uchun to'lanadi;

ishlab chiqarishga boshqa subsidiyalar davlat tomonidan ishlab chiqaruvchiga mazkur faoliyat turini qo'llab-quvvatlash maqsadida to'lanadigan

subsidiyalardir. Ishlab chiqarishga subsidiyalar miqdori ishlab chiqariladigan mahsulot qiymatiga emas, faqat faoliyat turiga bog'liq bo'ladi;

asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi hisobot davrida ishlab chiqaruvchi tomonidan sotib olingan asosiy fondlarning (chiqib ketganlarini chegirgan holda) umumiy qiymati va noishlab chiqarish aktivlarining bahosini oshiruvchi xizmatlarga sarflangan xarajatlar sifatida aniqlanadi;

moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishi hisobot davrida moddiy aylanma vositalar zaxiralari kelib tushgan zaxiralardan chiqib ketgan zaxiralar va hisobot davrida moddiy aylanma vositalar zaxiralari tarkibida bo'lgan tovarlar bo'yicha har qanday joriy yo'qotishlar qiymatini chegirib tashlash orqali aniqlanadi.

2-bob. Tovarlar va xizmatlar resurslari va ishlatilishi jadvallarini shakllantirish

2. RIJ mahalliy ishlab chiqarish (x_i) va importdan (m_i) hosil bo'lgan turli xil tovarlar va xizmatlar resurslari turli tarmoqlarning oraliq iste'moli (z_{ij}) va yakuniy ishlatilishi (f_i) (yakuniy iste'mol, yalpi jamg'arilish va eksport) maqsadlarida qanday foydalanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek asosiy tarkibiy qismlar kesimida tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

3. Tovarlar va xizmatlarning har bir guruhi bo'yicha balans quyidagi tenglamada aks ettiriladi:

$$x_i + m_i = z_{i1} + \dots + z_{ij} + \dots + z_{in} + f_i = \sum_{j=1}^n z_{ij} + f_i, \quad (1)$$

matritsa shaklida quyidagi ko'rinishga ega:

$$x_1 + m_1 = z_{11} + \dots + z_{1j} + \dots + z_{1n} + f_1$$

$$\vdots$$

$$x_i + m_i = z_{i1} + \dots + z_{ij} + \dots + z_{in} + f_i$$

$$\vdots$$

$$x_n + m_n = z_{n1} + \dots + z_{nj} + \dots + z_{nn} + f_n,$$

yoki

$$\mathbf{X} = \begin{bmatrix} x_1 \\ \vdots \\ x_n \end{bmatrix}, \quad \mathbf{M} = \begin{bmatrix} m_1 \\ \vdots \\ m_n \end{bmatrix}, \quad \mathbf{Z} = \begin{bmatrix} z_{11} & \dots & z_{1n} \\ \vdots & \ddots & \vdots \\ z_{n1} & \dots & z_{nn} \end{bmatrix}, \quad \mathbf{F} = \begin{bmatrix} f_1 \\ \vdots \\ f_n \end{bmatrix}$$

$$\mathbf{X} + \mathbf{M} = \mathbf{Z} + \mathbf{F},$$

bu yerda:

x_i – i mahsulotini ishlab chiqarish,

m_i – i mahsuloti importi,

z_{ij} – turli j tarmoqlarning maqsadli oraliq iste'moli uchun i mahsulotning ishlatilishi,

f_i – i mahsulotining yakuniy ishlatilishi,

i – mahsulot, $i=1,2,\dots,n$,

j – tarmoqlar, $j=1,2,\dots,n$.


4. RIJni shakllantirishda tarmoqlar hamda tovarlar va xizmatlar guruhlarini bo'yicha ikki turdagi ayniyatga amal qilinadi.

Tarmoqlar bo'yicha ayniyat: "Tovarlar va xizmatlar resurslari" jadvalidagi tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarish "Tovarlar va xizmatlarning ishlatilishi" jadvalidagi tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarishga teng.

Tovarlar va xizmatlar guruhlarini bo'yicha ayniyat: "Tovarlar va xizmatlar resurslari" jadvalidagi sotib olish narxidagi tovarlar va xizmatlar guruhi bo'yicha ixtiyordagi resurslar "Tovarlar va xizmatlarning ishlatilishi" jadvalidagi tovarlar va xizmatlar guruhi bo'yicha ushbu resurslarning ishlatilishiga teng.

5. RIJ faoliyat va mahsulot turlari bo'yicha bir xil tafsilotlarga ega. Faoliyat turlari IFUT-2 tasniflagichi asosida, mahsulot turlari esa – MST tasniflagichi asosida shakllantiriladi. Jadvallar qatorlari mahsulot turlarini, ustunlar faoliyat turlari guruhini ifodalaydi.

Tovarlar va xizmatlarning resurslari va ishlatilishi ayniyatlarining sxemasi



RIJni shakllantirish bu – milliy hisoblarni tuzishning ajralmas qismi hisoblanadi. Milliy hisoblar ko‘rsatkichlari hamda RIJni shakllantirishda bir xil ma’lumotlar manbalari va hisoblash usullaridan foydalanilishidan kelib chiqib, ma’lum qiymatlar sifatida ishlab chiqarish, daromadlarning shakllanishi va ixtiyordagi daromadlarni ishlatilishi hisoblari ko‘rsatkichlari qabul qilinadi.

6. Har bir tarmoq bo‘yicha ishlab chiqarish (O) oraliq iste’mol (IC) va qo‘shilgan qiymat (VA) yig‘indisiga teng.

$$O = IC + VA \quad (2)$$

Har bir tovarlar va xizmatlar guruhi bo‘yicha ishlab chiqarish va import yig‘indisi oraliq va yakuniy iste’mol yig‘indisiga teng.

$$O + M + NT + TRM = IC + C + I + X \quad (3)$$

bu yerda:

O – ishlab chiqarish,

M – import,

NT – mahsulotlarga sof soliqlar,

TRM – savdo va transport ustamaları,

IC – oraliq iste’mol,

C – yakuniy iste’mol,

I – jamg‘arish,

X – eksport.

7. RIJni asosiy ma’lumotlar manbalarini ko‘rsatgan holda shakllantirish sxemasi ushbu Uslubiy nizomning 1-ilovasida keltirib o‘tilgan.

3-bob. Sotib oluvchilar narxlarida tovarlar va xizmatlar resurslari jadvali

8. Resurslar jadvali iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlar taklifini tavsiflab beradi. Iqtisodiyotdagi taklif yoki resurslar mamlakat hududida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va importdan, shuningdek, tovarlar guruhlari bo‘yicha sotib oluvchilar narxlari shakllanishining asosiy tarkibiy qismlaridan tashkil topadi.

Resurslar jadvali qatorlarida tarmoqlar – ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar, ustunlarda esa – bir tarmoqda ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar aks ettirilgan.

“Tovarlar va xizmatlar resurslari” jadvalining umumiy sxemasi 2-ilovada keltirilgan.

9. Har bir iqtisodiy faoliyat turining ishlab chiqarishi mazkur faoliyat turi uchun asosiy hisoblanadigan tovarlar va xizmatlardan hamda boshqa faoliyat turlarida ikkilamchi mahsulot sifatida ishlab chiqariladigan shunga o‘xshash tovarlar va xizmatlardan tashkil topadi.

10. Yordamchi faoliyat bo‘yicha ishlab chiqarish alohida modda sifatida aks ettirilmaydi va ushbu ishlab chiqarishning ishlatilishi ham aks ettirilmaydi. Yordamchi faoliyat jarayonida ishlatiladigan barcha xarajatlar mazkur faoliyat xizmat ko‘rsatadigan asosiy yoki ikkilamchi faoliyat turi xarajatlari tarkibida aks etadi. Mazkur holatda yordamchi faoliyatni amalga oshirish natijasida olingan

qo'shilgan qiymatni alohida ajratib ko'rsatib bo'lmaydi, chunki u asosiy yoki ikkilamchi faoliyat jarayonida yaratilgan qo'shilgan qiymatning ajralmas qismidir.

1-§. Tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarish

11. Tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarish ko'rsatkichini shakllantirish ishlab chiqarish hisobidagi ishlab chiqarish ko'rsatkichini shakllantirish bilan aynan bir xildir. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishni hisoblash tartibi va ketma-ketligi "Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish usulida hisoblash bo'yicha Uslubiy nizom"da keltirilgan.

12. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha resurslar jadvalini shakllantirishda bosqichma-bosqich tuziladigan ichki ishlab chiqarish oraliq matritsasi asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu matritsani tuzish uchun sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha statistika kuzatuvlari ma'lumotlari IFUT-2 va MSTga muvofiq guruhlanadi. Birinchi bosqichda kichik korxona va mikrofirma bo'lmagan tadbirkorlik subyektlari, ikkinchi bosqichda kichik korxonalar va mikrofirmalar, uchinchi bosqichda esa uy xo'jaliklari bo'yicha statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida matritsa shakllantiriladi.

13. Ichki ishlab chiqarish matritsasi ko'rsatkichlariga buyurtmachining puli to'lanmagan qayta ishlangan xomashyosi va tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlarining o'zgarishi qiymati qo'shiladi.

Buyurtmachining puli to'lanmagan qayta ishlangan xomashyosi qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar tegishli tarmoq bo'yicha asosiy ishlab chiqarishga qo'shiladi.

Sanoatda tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlarining o'zgarishi qiymati yirik hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun alohida hisoblanadi.

14. Boshqa faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish ularga mos keluvchi diagonal ustunlar va satrlar bo'yicha taqsimlanadi.

15. Ishlab chiqarishni baholash uchun axborot manbai bo'lib, har yili tasdiqlanadigan Statistika dasturida bajarilishi nazarda tutilgan keng ko'lamdagi axborot resurslari (iqtisodiy faoliyat turlarini yillik kuzatuvlari, korxonalar va tashkilotlarni tarkibiy kuzatuvlari, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini tanlanma kuzatuvlari, shuningdek, davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi, bojxona va soliq organlarining ma'muriy ma'lumotlari, budjetdan tashqari fondlarning, Markaziy bankning moliyaviy ko'rsatkichlari va b.) xizmat qiladi.

16. Resurslar jadvalining birinchi qismida asosiy narxlardagi keltiriladigan ishlab chiqarish va import sotib olish narxlarining asosiy tarkibiy qismlaridan – soliqlar, subsidiyalar, savdo va transport ustamalaridan foydalangan holda, sotib olish narxlariga o'tkaziladi.

2-§. Tovarlar va xizmatlar importi

17. Tovarlar va xizmatlar importi bojxona organlarining idoraviy ma'lumotlari, statistika kuzatuvlari shakllari va tashrif buyuruvchilar (turistlar) kuzatuv ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

18. Bunda, bojxona organlari ma'lumotlari bo'yicha import tovar qiymatidan tashqari sug'urta xarajatlari va import qiluvchi mamlakat chegarasigacha tashish xarajatlarini o'z ichiga oluvchi, ammo import bojlari va import uchun soliqlarni o'z ichiga olmaydigan CIF narxida baholanadi.

19. Resurslarning umumiy hajmini aniqlash maqsadida, mahalliy ishlab chiqarish hajmiga import hajmini qo'shish uchun Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIFTN) kodlari asosida tasniflangan, o'tish kalitlari yordamida MST tasnifiga o'tkaziladi.

3-§. Mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar

20. Mahsulotlarga soliqlar bo'yicha ma'lumotlar davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotdan olinadi.

21. QQSni tovarlar guruhlari bo'yicha taqsimlash soliq organlari ma'lumotlari va davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot bo'yicha amalga oshiriladi.

22. QQSni tovarlar guruhlari bo'yicha taqsimlashda, qishloq xo'jaligi, ta'lim, sog'liqni saqlash, davlat boshqaruvi kabi ba'zi iqtisodiy faoliyat turlari, shuningdek, ishlab chiqaruvchilarning ayrim toifalari soliq qonunchiligiga ko'ra QQS to'lashdan deyarli butunlay ozod etilganligi inobatga olinadi.

23. Tovarlarining qonunchilikda belgilangan alohida turlari va guruhlariga aksiz soliqlari solinadi. Aksizlar davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotning batafsil ma'lumotlari asosida mahsulotlar guruhlari bo'yicha taqsimlanadi.

24. Import va eksport uchun soliqlar bojxona statistikasi ma'lumotlariga asosan mahsulotlar guruhlari bo'yicha taqsimlanadi, bunda davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotdan olinadigan umumiy qiymatga moslab tuzatishlar kiritiladi.

25. Mahsulotlarga subsidiyalarni tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha taqsimlash davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotning batafsil ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

26. Mahsulotlarga subsidiyalar alohida ustunda manfiy ishora bilan aks ettiriladi, chunki ular sotib olish narxidagi tovarlar yoki xizmatlar qiymatini kamaytiradi.

4-§. Mahsulotlarga savdo ustamalari

27. Jadvalning ustamalar bloki tovar qiymatini uni sotish va iste'molchiga yetkazib berish xizmatlari miqdoriga oshiradi.

28. Savdo ustamasi qiymati ulgurji va chakana savdo korxonalarining ishlab chiqarishi hajmiga teng bo'ladi. Ulgurji va chakana savdo korxonalarining ishlab chiqarishi ular tomonidan qayta sotish maqsadida sotib olingan tovarlar bo'yicha savdo ustamasining umumiy qiymati bilan o'lchanadi. Savdo ustamasi qayta sotish

uchun sotib olingan tovarni sotish natijasida olingan haqiqatdagi yoki shartli hisoblangan narx va savdo korxonasi tomonidan xuddi shunday tovar, u sotilgan yoki boshqa yo'l bilan foydalanilgan vaqtda, sotib olinishi uchun to'lanishi kerak bo'lgan narx o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

29. Ulgurji va chakana savdo korxonalari ustamolari tovarlar va xizmatlarning ishlatilishi ko'rsatkichlariga kiritilganligi sababli, resurslar jadvalida "Savdo ustamasi" vektor-ustuni ko'zda tutiladi. Bu vektor-ustunda har bir tovarlar guruhiga tegishli bo'lgan ustamalar ko'rsatiladi, bunda savdo xizmatlari satrida ustamaning umumiy miqdori manfiy ishora bilan aks ettiriladi.

30. Savdo ustamasini tovarlar guruhlari bo'yicha taqsimlash, ulgurji va chakana savdo bo'yicha statistika kuzatuv shakllari ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

5-§. Mahsulotlarga transport ustamolari

31. Tovarni u ishlab chiqarilgan joydan sotib oluvchi qabul qilib oladigan joygacha yetkazib berishning to'liq qiymati bir qator moddalar tarkibiga kiritilishi mumkin. Agar ishlab chiqaruvchi xaridor uchun tovarni tashishni qo'shimcha xarajatlarsiz amalga oshirsa yoki tashkil qilsa, u holda bunday transport xarajatlari asosiy narxga kiritiladi. Agar ishlab chiqaruvchi tovarlarni tashishni o'zi amalga oshirsa, bu uning yordamchi faoliyati sifatida qaraladi, tegishli xarajatlar esa, asosiy narxga kiritiladi va transport xarajatlari sifatida ajratilib ko'rsatilmaydi. Agar ishlab chiqaruvchi tovarlarni tashish uchun uchinchi shaxsga pul to'lasa, u holda tashish xarajatlari ishlab chiqaruvchining oraliq xarajatlari tarkibiga kiritiladi.

32. Ulgurji va chakana sotuvchilar ham tovarlarni qabul qilib olgan joydan ularni boshqa xaridor qabul qilib oladigan joygacha tashishni tashkil qilishlari mumkin. Ishlab chiqaruvchilar holatidagi kabi, bunday xarajatlar, agar xaridordan tashish uchun alohida to'lov undirilmasa, savdo ustamasiga kiritiladi. Shuningdek, ishlab chiqaruvchilar holatidagi kabi, bu xarajatlar ulgurji va chakana sotuvchilarning yordamchi faoliyatiga yoki oraliq xizmatlarni sotib olishga kiritilishi mumkin, va shuning uchun savdo ustamalariga kiritiladi.

33. Agar tovarlarni tashish transport xarajatlari xaridor tomonidan to'lashini nazarda tutilgan holda tashkil etilgan bo'lsa (tashishni ishlab chiqaruvchi, ulgurji yoki chakana sotuvchining o'zi amalga oshiradigan bo'lsa ham), bunday xarajatlar alohida ajratib ko'rsatiladi va transport ustamasiga kiritiladi.

34. Transport ustamasining hajmi (TM_k) transport turlari kesimida quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$TM_k = O_k + M_k - TIC_k - THH_k - X_k, \quad (4)$$

bu yerda:

O_k – k -turdagi yuk tashish transportining ishlab chiqarishi;

M_k – k -turdagi yuk tashish transporti xizmatlari importi;

TIC_k – mahsulot tannarxiga kiritiladigan k -turdagi yuk tashish transporti xizmatlari qiymati;

THH_k – uy xo‘jaliklari tomonidan iste‘mol qilingan k -turdagi yuk tashish transporti xizmatlari qiymati;

X_k – k - turdagi yuk tashish transporti xizmatlari eksporti.

35. Transport ustamasini tovarlar guruhlar bo‘yicha taqsimlash idoraviy hisobot ma‘lumotlari asosida shakllangan tarkibdan foydalangan holda va ekspert baholashlar asosida amalga oshiriladi.

36. Transport ustamasi sotib olish narxining tarkibiy qismi sifatida tovarlar va xizmatlar resurslari jadvalida “transport ustamasi” vektor-ustunida ko‘rsatiladi.

37. Savdo ustamasi kabi transport ustamasi ham tovarlar va xizmatlarning ishlatilishi ko‘rsatkichlariga kiritilgan. Bu vektor-ustunda har bir tovarlar guruhiga tegishli bo‘lgan ustamalar ko‘rsatiladi; bunda, transport xizmatlarining takroriy hisobga olinishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida transport xizmatlari satrida ustamaning umumiy hajmi manfiy ishora bilan ko‘rsatiladi.

38. Barcha ustunlar to‘ldirilgandan so‘ng tovarlar va xizmatlar resurslari jadvalining oxirgi ustunida “Sotib olish narxlarida tovarlar va xizmatlar resurslari” bo‘yicha jami hisoblanadi.

4-bob. Tovarlarni va xizmatlarning ishlatilishi jadvali

39. Tovarlarni va xizmatlarning ishlatilishi jadvali tovarlar va xizmatlarning oraliq (tarmoqlar bo‘yicha) va yakuniy talabni (yakuniy iste‘mol, yalpi jamg‘arilish va eksport) qondirish uchun ishlatilishini ifodalaydi. Ushbu jadval iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha oraliq iste‘mol va qo‘shilgan qiymatning tarkibiy qismlarini o‘zida aks ettiradi.

40. Tovarlarni va xizmatlarning ishlatilishi jadvali iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi uch qismdan (kvadrantlardan) iborat:

I kvadrant mahsulotlar guruhlar va iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha oraliq iste‘molni ifodalaydi;

II kvadrant guruhlar bo‘yicha tovarlar va xizmatlarning yakuniy iste‘moli (yakuniy iste‘mol, yalpi jamg‘arilish, eksport) yo‘nalishlarini aks ettiradi;

III kvadrant iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha birlamchi daromadlarning (ish haqi, yalpi foyda/aralash daromad, ishlab chiqarish uchun sof soliqlar) shakllanishini tavsiflab beradi.

41. Tovarlarni va xizmatlar ishlatilishi jadvali I va II kvadrantining har bir satri ushbu mahsulotlar guruhining oraliq iste‘mol (tarmoqlar bo‘yicha) va yakuniy iste‘mol (ishlatilish toifalari bo‘yicha) uchun foydalanilishini ifodalaydi. I va III kvadrantning har bir ustuni mahsulotlar guruhlar bo‘yicha oraliq iste‘mol tarkibi va tarmoqlar qo‘shilgan qiymati tarkibiy qismlarini aks ettiradi.

42. Tovarlarni va xizmatlarning ishlatilishi jadvalini to‘ldirish korxonalarining tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish xarajatlari tarkibini tanlanma kuzatuvi, statistika kuzatuvlari ma‘lumotlari, ishlab chiqarish hisobi, daromadlarning shakllanishi va foydalanilishi hisobi, shuningdek, kapital bilan operatsiyalar hisobi ma‘lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Tovarlarni va xizmatlarning ishlatilishi jadvalining umumiy sxemasi 3-ilovada keltirilgan.

6-§. Oraliq iste'mol ko'rsatkichlarini shakllantirish

43. Tovarlar va xizmatlar ishlatilishi jadvalining I kvadrantida ishlab chiqaruvchilarning oraliq iste'moli aks ettiriladi va bu kvadrantda bir mahsulot qanday qilib keyinchalik qayta ishlash, yakuniy iste'molchiga sotish yoki eksport qilish uchun mo'ljallangan boshqa murakkabroq mahsulotga aylanishini ko'rish mumkin.

44. Ishlatilish jadvalida aks ettiriladigan tovarlar va xizmatlarning batafsil guruhlari bo'yicha tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirishda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bo'yicha o'tkaziladigan yuridik shaxslarning mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini bir martalik kuzatuv ma'lumotlaridan foydalaniladi.

45. Budjet tashkilotlari xarajatlarini tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha taqsimlashda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining tovarlar va xizmatlar kesimida davlat budjeti xarajatlari moddalarining detallashtirilgan batafsil ma'muriy ma'lumotlaridan foydalaniladi.

46. Ayrim tarmoqlarda norasmiy sektor ishlab chiqarishning asosiy ulushini tashkil qilishi va xarajatlar tarkibi kuzatuviga qo'shilmaganligi natijasida, ularning xarajatlari tarkibi tanlanma kuzatuvda qamrab olingan korxonalar xarajatlari tarkibidan farq qilishi taxmin qilinadi. Norasmiy faoliyatda tovarlar va xizmatlarning ishlatilishi to'g'risidagi ma'lumot uy xo'jaliklari so'rovnomasida mavjud.

47. Olingan ma'lumotlar asosida tarmoqlar oraliq iste'molining turlari bo'yicha tarkibi aniqlanadi, bu esa, oraliq iste'molning mutlaq ko'rsatkichlarini shakllantirish uchun asos hisoblanadi.

48. Maqsadli jamlanma bo'yicha tarmoqlarning oraliq iste'moli ko'rsatkichlarini hisoblash uchun olingan ma'lumotlarni ishlab chiqarish hisobidagi oraliq iste'molning yakuniy natijalari hajmiga bosqichma-bosqich tarqatish amalga oshiriladi.

7-§. Yakuniy ishlatilishning ko'rsatkichlarini shakllantirish

49. Yakuniy ishlatilishning umumiy qiymati va tarkibiy qismlari ixtiyoridagi daromadlardan foydalanish hisobining mos ko'rsatkichlarini hisoblash uslubi bo'yicha hisoblanadi va mos ravishda, qiymat bo'yicha teng bo'ladi. Yakuniy iste'molning tarkibiy qismlarini hisoblash tavsifi "Yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste'mol usulida hisoblash to'g'risidagi Uslubiy nizom"da keltirilgan.

50. Yakuniy ishlatilish quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: yakuniy iste'mol xarajatlari, yalpi jamg'arilish va eksport.

51. Yakuniy iste'mol uchun xarajatlar uy xo'jaliklari, davlat boshqaruvi organlari va uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarning xarajatlarini o'z ichiga oladi.

52. Uy xo'jaliklari xarajatlari hajmi va tarkibini aniqlash uchun asosiy axborot manbai bo'lib, uy xo'jaliklari kuzatuv ma'lumotlari xizmat qiladi.

53. Uy xo'jaliklarining iste'mol tovarlari va xizmatlarni xarid qilish xarajatlari to'g'risida olingan ma'lumotlar MST bo'yicha bir turdagi tovarlar va xizmatlar guruhlari kesimida jamlanadi. Jamlash natijasi tovarlar va xizmatlarning ishlatilishi jadvalining II kvadrantida aks etadigan uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlari vektorini ifodalaydi.

54. Davlat boshqaruvi organlari aholiga tovarlar va xizmatlarni yakka tartibda va jamoaviy tarzda yetkazib beradi, ularni taqdim etish xarajatlari davlat boshqaruvi organlarining yakuniy iste'mol xarajatlari sifatida aks ettiriladi.

55. Davlat boshqaruvi organlarining yakka tartibda va jamoaviy xizmatlarga sarflagan xarajatlari MST tovarlar guruhlari bo'yicha davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot ma'lumotlariga asosan taqsimlanadi.

56. Yalpi jamg'arilish quyidagi bandlardan iborat: asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi va moddiy aylanma vositalari zaxiralarining o'zgarishi.

57. Asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishini tovarlar guruhlari bo'yicha taqsimlashda ma'lumotlar manbai bo'lib, investitsiyalar, qishloq xo'jaligi bo'yicha statistika kuzatuvlari, bojxona statistikasi, tuzilmaviy statistika, davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot, shuningdek, korxonalar xarajatlari tarkibining tanlanma kuzatuv ma'lumotlari hisoblanadi.

58. Moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishi xomashyo va materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va qayta sotish uchun tovarlar zaxiralarining o'sishi yoki kamayishini o'z ichiga oladi.

59. Moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishini tovarlar guruhlari bo'yicha taqsimlash sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo bo'yicha statistika kuzatuvlari va korxonalar xarajatlari tarkibining tanlanma kuzatuv ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

60. Eksport – eksport qiluvchi mamlakatdan tovarni olib chiqish vaqtidagi FOB (bortda bepul) narxlarida baholanadi. Bu baho eksport qiluvchi birlik joylashgan joydan eksport qiluvchi mamlakatning chegarasigacha bo'lgan tashish qiymatini o'z ichiga oladi.

61. Tovarlarni va xizmatlarni eksporti ko'rsatkichlarini shakllantirish uchun axborot manbai bo'lib to'lov balansi, bojxona statistikasining TIFTN kodlari kesimidagi ma'lumotlari va statistika kuzatuvlari shakllari ma'lumotlari hisoblanadi.

62. Tovarlarni va xizmatlarni eksporti tarkibini hisoblash uchun bojxona statistikasi ma'lumotlari o'tish kalitlari yordamida TIFTN kodlaridan MST kodlariga qayta taqsimlanadi.

8-§. Yalpi qo'shilgan qiymatning tarkibiy qismlarini shakllantirish

63. III kvadrant iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha qo'shilgan qiymatning tarkibiy qismlarini ifodalaydi. Yalpi qo'shilgan qiymat tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayoni natijasida birlamchi daromadlarning shakllanishini aks ettiradi.

64. Tovarlarni va xizmatlarning ishlatilishi jadvalida aks ettirilgan har bir tarmoq bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat ishlab chiqarish va oraliq iste'mol orasidagi farq sifatida aniqlanadi.

65. Tovarlar va xizmatlar ishlatilishi jadvalining III kvadrantida qo‘shilgan qiymatning quyidagi tarkibiy qismlari ajratib ko‘rsatiladi:

- a) xodimlarning ish haqi;
- b) ishlab chiqarishga boshqa soliqlar;
- d) ishlab chiqarishga boshqa subsidiyalar;
- e) yalpi foyda/aralash daromad.

66. Qo‘shilgan qiymat komponentlarini hisoblash “Daromadlarning shakllanishi hisobini shakllantirish bo‘yicha Uslubiy nizom”da ta’rif berilgan.

5-bob. Ixtiyoridagi va ishlatiladigan resurslarni o‘zaro muvofiqlashtirish va ularni tahlil qilish

67. RIJning balans qilinmagan birinchi varianti shakllantirilgandan so‘ng, jadvallarning barcha ko‘rsatkichlar tizimini tahlil qilish, tafovutlar sababini aniqlash va tarkibiy qismlarga ketma-ket tuzatishlar kiritish asosida ixtiyoridagi va ishlatiladigan tovarlar va xizmatlar resurslarini o‘zaro muvofiqlashtirish ishlari amalga oshiriladi.

68. Tafovutlarni bartaraf etish har bir mahsulot turi bo‘yicha ishlab chiqarish va oraliq iste‘molning nazorat yakunlari tarkibini ko‘rsatib beruvchi elementlarga, shuningdek, yakuniy talabning funksional elementlariga tuzatishlar kiritish orqali amalga oshiriladi.

69. RIJni balans qilishda asosiy e‘tibor ushbu jadvallarning o‘zaro balanslanishiga qaratiladi.

Balans qilish mahsulot ishlab chiqarishning ma‘lum hajmi va satrlar yig‘indisi orasidagi farqni barcha ustunlar bo‘yicha mutanosib ravishda taqsimlash (4-ilova), so‘ngra tarmoqlar bo‘yicha ma‘lum ishlab chiqarish hajmlari va ustunlar yig‘indisi orasidagi farqni barcha satrlar bo‘yicha mutanosib ravishda taqsimlashdan (5-ilova) iborat. Bu jarayon barcha tafovutlar yo‘qotilmagunga qadar davom ettiriladi.

70. Jadvallarni balanslashtirishda oqimlarni ikki qismga ajratish muhim: ishonchli statistika ma‘lumotlariga yoki idoraviy ma‘lumotlarga asoslangan oqimlar va o‘zgarishi mumkin bo‘lgan oqimlar.

Balanslashtirish SUTB MATLAB funksiyasini qo‘llash orqali amalga oshiriladi. So‘ng balanslashtirilgan RIJ eng ishonchli ma‘lumotlar bilan mosligi tekshiriladi. Zarur bo‘lgan hollarda balanslashtirilgan jadvallarga o‘zgartirishlar kiritiladi.

71. Ko‘p yillik jadvallar ko‘rsatkichlari tarkibiy nisbatlarning o‘zgarishi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

72. Ixtiyoridagi va ishlatiladigan resurslarni muvofiqlashtirish jarayoni ikkiyoqlama yozuv tamoyiliga amal qilishni tekshirishdan iborat. Ya‘ni, agar biror tovar ishlab chiqarilgan bo‘lsa, u albatta ishlatilgan bo‘lishi kerak. Agar tovar sotilgan bo‘lsa, u holda birorta ishlatilish bandi bo‘yicha: oraliq iste‘mol, yakuniy iste‘mol, yalpi jamg‘arilish va shu kabilarda aks etishi kerak. Agar ishlab chiqaruvchi tovarni sotmagan bo‘lsa, u holda tayyor mahsulot zaxirasi sifatida aks ettiriladi.

73. Tarkibiy nisbatlarni, narx shakllanishining tarkibiy qismlarini, ishlab chiqarishning texnologik tuzilishini tahlil qilish maqsadida balanslashtirilgan RIJlar asosida tahliliy jadvallar hisoblab chiqiladi.

74. “Tovarlar va xizmatlar resurslari” jadvalining tahliliy ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- a) iqtisodiyot tarmoqlaridagi ishlab chiqarish tarkibi;
- b) asosiy narxlarda tovarlar va xizmatlar resurslarining shakllanishi tarkibi;
- d) tovarlar va xizmatlar turlari bo‘yicha sotib olish narxlari tarkibi;
- e) tovarlar va xizmatlar resurslarini sotib olish narxlarining shakllanishi tarkibi.

75. “Tovarlar va xizmatlarning ishlatilishi” jadvali ko‘rsatkichlarini tahlil qilish uchun quyidagilar hisoblab chiqiladi:

- a) to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar koeffitsiyentlari;
- b) oraliq iste‘molning mahsulotlar bo‘yicha tarkibi;
- d) oraliq talabning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi;
- e) tovarlar va xizmatlarning ishlatilishi tarkibi;
- f) yakuniy talabning funksional tarkibi;
- g) yakuniy talab funksional elementlarining mahsulotlar bo‘yicha tarkibi;
- h) qo‘shilgan qiymatning elementlar bo‘yicha tarkibi;
- i) qo‘shilgan qiymat elementlarining tarmoqlar bo‘yicha tarkibi.

6-bob. Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholashda RIJdan foydalanish

76. Kuzatilmaydigan iqtisodiyot u yoki bu sabablarga ko‘ra doimiy statistika kuzatuvlarida aks ettirilmaydigan faoliyat turlarini tavsiflaydi. Ushbu turdagi faoliyatning norasmiy ekanligi yoki rasmiy kuzatuvlar qamroviga kirmasligi yoki ishlab chiqaruvchining qonuniy faoliyatini yashirishga intilishi yoki bu faoliyatning noqonuniy ekanligi bunga sabab bo‘lishi mumkin.

Milliy hisoblar tizimi ishlab chiqarish chegarasidagi barcha tovarlar ishlab chiqarishni (xizmatlar ko‘rsatishni) o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish chegarasida kuzatilmaydigan iqtisodiyotning quyidagi faoliyat turlari qayd etilishi kerak: yashirin, norasmiy, shu jumladan, uy xo‘jaliklarining o‘zlarining yakuniy iste‘moli uchun ishlab chiqarishi, noqonuniy va asosiy ma‘lumotlarni yig‘ish dasturidagi kamchiliklar tufayli o‘tkazib yuborilgan boshqa faoliyat turlari.

77. Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholash bo‘yicha turli usullar mavjud, ammo faqat RIJ tizimidan foydalanish YAIMni to‘liq qamrovda baholash uchun tizimli va o‘zaro bog‘langan tuzatishlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, ushbu jadvallar:

birlamchi ma‘lumotlar manbalaridagi kamchiliklar va nomutanosibliklarni aniqlash;

resurslar yoki ishlatilishda yetishmayotgan ko‘rsatkichlarni qoldiq usuli orqali hisob-kitob qilish natijasida kamchiliklarni to‘ldirish;

resurslar va ishlatilish hisob-kitoblarining o‘zaro kesishuvchan nazorati va muvofiqligi, shuningdek, ishonchliligi va to‘liqligi darajasini oshirish;

bazaviy hisob-kitoblar jadvallaridagi koeffitsiyentlar va boshqa ma'lumotlardan foydalangan holda, batafsil yoki ishonchli ma'lumotlar mavjud bo'lmagan davrlar uchun hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini beradi.

Agar RIJ kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholashni o'z ichiga olmasa yoki bu hisob-kitoblar noto'g'ri bo'lsa, hisob-kitoblarda nomuvofiqliklar paydo bo'lishi mumkin. Masalan, iste'molchilar do'kondan mahsulot sotib olganda, ular odatda bu mahsulot iqtisodiy jihatdan "noqonuniy" (hisobotlarda qayd etilmagan yoki kontrabanda) yoki "qonuniy" ekanligini bilishmaydi, ya'ni bu mahsulot uy xo'jaliklari iste'molida aks etadi va "noqonuniy" mahsulot rasmiy statistikada qayd etilmaydi.

78. Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholashda RIJdan foydalanish to'liq qamrovli, tizimli va butun iqtisodiyotni o'zida aks ettiradigan tovarlar oqimi usulini qo'llashga asoslanadi.

Jadvallarni tuzish jarayonida tovarlar oqimini tavsiflovchi yetishmayotgan ma'lumotlar tizimlashtiriladi va modellashtiriladi, buning natijasida iqtisodiyotning to'g'ridan-to'g'ri statistika usullari bilan kuzatilmaydigan parametrlari aniqlanadi.

RIJ tovarlar oqimi usulidan foydalangan holda tuzilganda, aksariyat tarmoqlar uchun mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish yoki sotishning jami qiymati mahsulotlar bo'yicha taqsimlanadi. Shuningdek, savdo bo'yicha xalqaro statistika hamda xizmatlar eksporti va importini hisobga olish bo'yicha ma'lumotlardan foydalaniladi.

Mazkur ma'lumotlar mamlakatda ishlatish uchun mavjud bo'lgan har bir mahsulot resurslarining jami qiymatini aniqlash uchun mahalliy ishlab chiqarish va import haqida ma'lumotlarni umumlashtirishda ishlatiladi.

79. Mazkur Uslubiy nizomning 5-bandida keltirilgan (3) tenglama mahalliy ishlab chiqarish hamda tovarlar va xizmatlar importi ishlatilishga – oraliq va yakuniy iste'mol, jamg'arish va eksportga – teng ekanligini ko'rsatadi. Ushbu tenglama to'liq RIJ uchun qo'llanilsada, uni to'liq RIJni shakllantirmay turib ham alohida tovarlar va xizmatlar uchun qo'llash mumkin.

(3) tenglama alohida tovarlar va xizmatlar uchun tovarlar oqimi usulining asosi bo'lib xizmat qiladi. Bunda alohida tovarlar va xizmatlar uchun "tovar balansi" tuziladi. Tovar balansi sxemasi quyida keltirilgan.

№	<i>N</i> tovar uchun tovar balansi
	Resurslar
1	Mahalliy ishlab chiqarish
2	Import
3	Transport ustamasi
4	Savdo ustamasi
5	Mahsulotlarga soliqlar
6	Sotib olish narxlarida jami resurslar ((6) = (1) + (2) + (3) + (4) + (5))
	Ishlatilish
7	Oraliq iste'mol

8	Yakuniy iste'mol
9	Jamg'arish
10	Eksport
11	Jami ishlatilish ((11) = (7) + (8) + (9) + (10))
	Tafovutlar
12	Jami tafovutlar ((12) = (6) – (11))

80. Tovarlar oqimi usuli mahsulot resurslari (ishlab chiqarish va import) hajmini ushbu resurslarni yakuniy va oraliq iste'mol, jamg'arish va eksport qilish uchun ishlatilishi bilan taqqoslashdan iborat.

Ayrim tovarlar resurslarining ishlatilishini baholashda "ko'zgu" bojxona statistikasi ma'lumotlaridan foydalanish strategik ahamiyatga ega bo'lgan eksport tovarlari bo'yicha yashirin ishlab chiqarish hajmini aniqlash imkonini beradi.

Korxonalar va eksportchilar tomonidan hisobotlarda ko'rsatilgan ishlab chiqarilgan tovarlar qiymati va bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan shartnoma qiymati o'rtasidagi farq vositachilik xizmatlari qiymatini aniqlash imkonini beradi.

Resurslar va ishlatilish o'rtasidagi nomutanosiblik ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarilishi va ishlatilishi haqidagi ma'lumotlarning to'liq emasligini anglatadi. Masalan, agar ma'lum bir tovar uchun jami resurslar (ishlab chiqarish va import) jami ishlatilishdan (yakuniy va oraliq iste'mol, jamg'arish va eksport) kam bo'lsa, ma'lumotni qaysi qismi – ishlab chiqarish yoki import bo'yicha ma'lumot – ishonchliroq ekanligi aniqlanadi va shu ma'lumot asosida ikkinchi qismi baholanadi.

Tovarlar oqimi usulidan foydalangan holda ishlab chiqarishni baholashda narxlardagi farqlar (sotib olish narxi, asosiy yoki ishlab chiqaruvchilar narxlari) yo'q deb faraz qilinadi.

$$O = IC + C + I + X - M \quad (5)$$

bu yerda:

O – ishlab chiqarish;

M – import;

IC – oraliq iste'mol;

C – yakuniy iste'mol;

I – jamg'arish;

X – eksport.

81. Tovarlar resurslari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida chakana savdo ishlab chiqarishini baholashda tovarlar oqimi usuli alohida ahamiyat kasb etadi. RIJni tuzishda eng muhim tuzatishlar odatda savdo faoliyati, transport ustamolari, neft xomashyosi va neft mahsulotlari, gaz va elektr energiyasini ishlab chiqarishni baholashda amalga oshiriladi.

Savdo faoliyati va transport ustamalarini baholashda har bir mahsulot turi bo'yicha sotib olish narxi va ishlab chiqaruvchilar narxlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka alohida ahamiyat beriladi. Bunda tovarlarning ishlab

chiqaruvchilardan xaridorlarga bo'lgan harakati mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi.

Ba'zi tovarlar bo'yicha ishlab chiqaruvchilardan yakuniy iste'molchilarga bo'lgan "zanjir" 30 tagacha vositachilarni o'z ichiga olishi mumkin. Odatda, vositachilar:

to'liq qamrovli statistika kuzatuv o'tkazilmaydigan kichik korxonalar;
standart statistika usullari yordamida kuzatish mumkin bo'lmagan firmalar;
yoki buxgalteriya jarayonlari shaffof bo'lmagan yirik vertikal integratsiyalashgan korxonalar bo'ladi.

Bunday vaziyatlarda RIJ ma'lum tovarlar guruhi bo'yicha savdo ustamolari hajmini baholash hamda savdo vositachilarining daromadlari hajmini baholashda yagona vositadir.

7-bob. Yakuniy qoidalar

82. RIJ yillik asosda tuziladi. Bazaviy RIJ korxonalarning mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari kuzatuv natijalari bo'yicha tuziladi. Kuzatuv o'tkazilmagan yillar uchun ishlatilish jadvali bazaviy jadvallarni narxlar va fizik hajm o'zgarishi indekslari yordamida qayta baholash yo'li bilan yangilanadi.

83. RIJni tuzish quyidagilar bo'yicha yakuniy statistika ishi hisoblanadi:

- a) MHTning asosiy ko'rsatkichlarini o'zaro muvofiqlashtirish;
- b) iqtisodiyot va ijtimoiy soha rivojlanishining prognoz hisob-kitoblari uchun axborot massivlarini tuzish;
- d) inflyatsiya jarayonlari va iqtisodiy o'sishni baholash uchun narx indekslari va deflyator indekslarini hisoblash bo'yicha axborot-uslubiy bazani yaratish.

84. Ushbu jadvallar asosida ishlab chiqarish, alohida tovarlar guruhlar bo'yicha sotib olish narxlar tarkibi, tovarlar va xizmatlar resurslarining shakllanishi, ishlab chiqarishdagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi.


85. RIJni tuzish Xarajatlar-ishlab chiqarish simmetrik jadvalini ishlab chiqishda asosiy bosqich sifatida qaraladi.

86. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2021- yil 11- avgustdagi O'RQ – 707- son “Rasmiy statistika to'g'risida”gi qonuni.
2. Система национальных счетов – 2008, Организация Объединенных Наций, Европейская комиссия, Организация экономического сотрудничества и развития, Международный валютный фонд и Всемирный банк, 2009г.
3. Handbook on Supply, Use and Input-Output Tables with Extensions and Applications, UN, 2018.
4. Руководство по составлению таблиц затрат-выпуска и их анализу, ООН, 2000 г.
5. Eurostat Manual of Supply, Use and Input-Output Tables, 2008.
6. Yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste'mol usulida hisoblash bo'yicha Uslubiy nizom. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2020- y.
7. Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish usulida hisoblash bo'yicha Uslubiy nizom. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2021- y.
8. Statistik ko'rsatkichlarga qisqacha metodologik izohlar// O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi – T.,2020- y.

Tovarlar va xizmatlar resurslari va ishlatilishi jadvalining shakllanishi sxemasi



Tovarlar va xizmatlar
resurslari va ishlatilishi
jadvallarini tuzish bo'yicha
Uslubiy nizomga
4-ILOVA


Tovarlar oqimi usulida RIJni balanslashtirish

Resurslar jadvali

	Tarmoqlar	Import	Ustamalar	Resurslar
Mahsulotlar	Ishlab chiqarish matritsasi	Import matritsasi	Ustamalar matritsasi	Jami resurslar
Jami	Ishlab chiqarish	Jami	Jami	Jami

Ishlatilish jadvali

	Tarmoqlar	Uy xo'jalik-larining yakuniy iste'moli	Davlat boshqaruvi organlarining yakuniy iste'moli	Yalpi jamg'arilish	Eksport	Ishlatilish
Mahsulotlar	Oraliq iste'mol	COICOP	COFOG	GFCF		Jami ishlatilish
Jami	Jami	Jami	Jami	Jami	Jami	
Komponentlar bo'yicha qo'shilgan qiymat	Qo'shilgan qiymat					
Jami	Ishlab chiqarish					



Tovarlar va xizmatlar
resurslari va ishlatilishi
jadvallarini tuzish bo'yicha
Uslubiy nizomga
5-ILOVA

Xarajatlar usulida RIJni balanslashtirish

Resurslar jadvali

	Tarmoqlar	Import	Ustamalar	Resurslar
Mahsulotlar	Ishlab chiqarish matritsasi	Import matritsasi	Ustamalar matritsasi	Jami resurslar
Jami	Ishlab chiqarish	Jami	Jami	Jami

Ishlatilish jadvali

	Tarmoqlar	Uy xo'jalik-larining yakuniy iste'moli	Davlat boshqaruvi organlarining yakuniy iste'moli	Yalpi jamg'arilish	Eksport	Ishlatilish
Mahsulotlar	Oraliq iste'mol	COICOP	COFOG	GFCF		Jami ishlatilish
Jami	Jami	Jami	Jami	Jami	Jami	
Komponentlar bo'yicha qo'shilgan qiymat	Qo'shilgan qiymat					
Jami	Ishlab chiqarish					

